

Mohlaroy Ahmedova

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
San'atshunoslik instituti doktoranti
E-mail: ahmedovam3005@gmail.com
ORCID: 0009-0005-0945-1873*

**O'ZBEK TEATRIDA NASRIDDIN AFANDI OBRAZI VA
“AFANDINING BESH XOTINI” PYESASINING SAHNAVIY
TALQINLARI**

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek teatr san'atida folklor an'analari, xususan, Xo'ja Nasriddin Afandi obrazining shakllanishi va dramaturg I.Sodiqovning “Afandining besh xotini” pyesasi misolida turli teatr jamoalari tomonidan amalga oshirilgan sahnaviy talqinlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Milliy akademik drama teatri, O'zbek davlat drama teatri hamda Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri spektakllaridagi rejissura, aktyorlik mahorati va janriy izlanishlar qiyosiy o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *teatr, folklor, Nasriddin Afandi, I.Sodiqov, komediya, rejissura, aktyorlik mahorati, sahnaviy talqin.*

**ОБРАЗ НАСРЕДДИНА АФАНДИ В УЗБЕКСКОМ ТЕАТРЕ И
СЦЕНИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПЬЕСЫ «ПЯТЬ ЖЁН АФАНДИ»**

Аннотация. *В данной статье анализируются традиции фольклора в узбекском театральном искусстве, в частности, формирование образа Ходжи Насреддина Афанди и сценические интерпретации пьесы И. Садыкова «Пять жен Афанди» различными театральными коллективами. В исследовании проведен сравнительный анализ режиссуры, актерского мастерства и жанровых поисков в спектаклях Национального академического драматического театра, Узбекского государственного драматического театра и Сырдарьинского областного музыкально-драматического театра.*

Ключевые слова: *театр, фольклор, Насреддин Афанди, И.Садыков, комедия, режиссура, актерское мастерство, сценическая интерпретация.*

THE IMAGE OF NASRIDDIN AFANDI IN UZBEK THEATRE AND STAGE INTERPRETATIONS OF THE PLAY "AFANDI'S FIVE WIVES"

Abstract. *This article analyzes the traditions of folklore in the Uzbek theater art, in particular, the formation of the image of Khoja Nasriddin Afandi and the stage interpretations of I. Sodiqov's play "Five Wives of Afandi" by various theater groups. The study provides a comparative analysis of directing, acting skills, and genre explorations in the performances of the National Academic Drama Theater, the Uzbek State Drama Theater, and the Syrdarya Regional Musical Drama Theater.*

Keywords: *theater, folklore, Nasriddin Afandi, I.Sodiqov, comedy, directing, acting skills, stage interpretation.*

O'zbek teatr san'atida folklor an'analari va xalq o'yinlarining dramatik hamda sahnaviy talqinlari o'ziga xos boy tarixga va taraqqiyot bosqichlariga ega. O'zbek adabiyoti va folklorida alohida salmoqli o'ringa ega bo'lgan markaziy qahramonlardan biri Xo'ja Nasriddin Afandidir. Uning obrazi nafaqat o'zbek, balki boshqa sharq xalqlari og'zaki ijodida ham xalqning donoligi, hozirjavoblighi va yumor ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek teatri san'atkorlari yillar davomida Xo'ja Nasriddin mavzusiga bot-bot muroojaat qilib kelishgan.

Mustaqillik yillarida o'zbek teatri nafaqat g'oyaviy, balki tashkiliy jihatdan ham tubdan islohot qilindi. Tadqiqotchi K.Umarov ta'kidlaganidek: "O'zbekistonda teatr boshqaruvining huquqiy-tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish hamda teatr repertuar siyosatining o'ziga xosligi shundaki, bu jarayonda milliy qadriyatlar va folklor-etnografik ruhdagi asarlarga e'tibor kuchaydi" [1, 12-b]. Ushbu islohotlar va yaratilgan imkoniyatlar natijasida teatrlarda folklor asarlariga e'tibor ortdi. Mazkur yillarda teatrlar sahnasida Afandi haqida bir qator rang-barang spektakllar tomoshabinlarga havola etildi. Masalan: U.Sattorov pyesasi asosida U.A.Baqoyev sahnalashtirgan "Xo'ja Nasriddin" (1992, A.Hidoyatov nomidagi Drama teatri); Yu.Azimzoda pyesasi bo'yicha A.Niyozovning "Nasriddinning yoshligi" (2005, Drama teatri); Sh.Boshbekov qalamiga mansub B.Akobirov rejissyorligidagi "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" (Buxoro viloyati musiqali drama teatri); Xorazm

viloyati musiqali teatrida “Afandilar (2009, rej. A.Yo‘ldashev”, T.Isroilov rejissyorligidagi “Nasriddinning hiylasi” (2012, Qashqadaryo teatri); B.Mirmaqsudov sahnalashtirgan “Bir kuni Nasriddin” (2024, Qashqadaryo teatri); Satira teatri “Besh xotinning afandisi”(2023, rej. J.Ro‘zmetov), Xorazm (2019, rej. A.Yo‘ldashev) va Farg‘ona rus drama teatrlarida (2021, rej. A.Yuldasheva) sahnalashtirilgan “Afandining besh xotini”; O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrining “Nasriddin Afandi” (2026, rej. Shuhrat Ibragimov) spektakllari shular jumlasidandir.

Afandi obrazi turli teatr jamoalari tomonidan pyesa, musiqiy drama, satira, qo‘g‘irchoq teatri va hatto milliy masxarabozlik va qiziqchilik an‘analari shakllarida ham talqin qilingan. XXI asr o‘zbek sirki tarixida alohida o‘rin egallagan O‘zbekiston xalq artisti Akrom Yusupov milliy masxarabozlik va qiziqchilik an‘analarini sirk san‘ati bilan boyitib, zamonaviy “Xo‘ja Nasriddin” timsolini yaratgan. San‘atkor o‘z eshagiga “ISH – 421” davlat raqamini taqib, “yig‘ma mashina” nomli hajviy sahna ko‘rinishi orqali maishiy va ijtimoiy muammolarni o‘tkir satira hamda zamonaviy Xo‘ja Nasriddin nigohi bilan kulgiga olgan.

Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrida rejissyor Shavkat Pardayev tomonidan sahnalashtirilgan “Afandizoda” spektaklida esa maydon tomoshasi (buffonada) hamda namoyish san‘ati usullari ustuvorlik qiladi. Spektaklda voqealar bo‘sh sahnada Afandining doira usulida kirib kelishi bilan boshlanib, aktyorlar aytishuv va laparlar vositasida dekoratsiyani bevosita tomoshabin ko‘z o‘ngida tiklash orqali boy folklor muhitini hosil qiladi. Buxoro viloyati musiqali drama teatri sahnasidagi B.Akobirovning “Xo‘ja Nasriddinning Buxoroga qaytishi” spektaklida ham folklor, etnografiya va xalq o‘yinlarining uyg‘unligi ko‘zga tashlanadi. Xususan, soqchilar obrazini yaratgan aktyorlar Bobur Boymurodov va Hayot Ashurovlarning ekspressiv-ekstsentrik ijro uslubi asarning satirik ta’sirchanligini yanada oshirgan.

Ushbu spektakllar orasida dramaturg I.Sodiqov qalamiga mansub “Afandining besh xotini” komediyasi alohida sahnaviy taqdirga va muvaffaqiyatga

ega. “Mazkur pyesa o‘z davri uchun dolzarb bo‘lgan xalqona kulgi, oddiy insonlarning hayoti va ijtimoiy munosabatlarini yengil, ammo teran ifoda etishga qaratilgan asar sifatida e‘tirof etiladi. E‘tiborlisi shundaki, pyesa bir vaqtning o‘zida ikki teatr – Hamza nomidagi (hozirgi O‘zbekiston Milliy akademik drama teatri) hamda Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri sahnasi uchun tayyorlangan” [2, 8-b].

Komediya dastlab 1991-yilda O‘zbek Milliy akademik drama teatrida (rejissyor M.Azimov) hamda Sirdaryo musiqali drama teatrida (rejissyor J.Mahmudov) sahnaga qo‘yilib, premyerayoq tomoshabinlar e‘tirofiga sazovor bo‘ldi. Keyinchalik asar respublikamizning ko‘plab teatr jamoalari repertuaridan joy oldi; xususan, 1994-yilda A.Bakirov nomidagi Andijon teatrida M.Hamidov hamda 1999-yilda Qoraqalpoq teatrida K.Abdreymov tomonidan sahnalashtirildi.

Aristotel o‘zining “Poetika” asarida komediyaning tabiati va uning qahramonlari haqida to‘xtalib, shunday deydi: “Komediya esa ta’kidlaganimizdek, yomon kishilarni butunlay badnom qilish ma’nosida bo‘lmasdan, balki kulgili holatni gavdalantirishdir. Kulgili narsa – bu hech kimning dilini og‘ritmaydigan va hech kimga zarar keltirmaydigan ba’zi bir nuqson hamda majruhlikdir” [3, 14-b]. Faylasufning ushbu nazariyasiga tayanilsa, “Afandining besh xotini” pyesasidagi qahramonlar va tipajlar ham ayni dramatik qoidalarga to‘liq mos tushadi. Podshoh tomonidan Afandiga in’om etilgan xotinlarning har biri o‘ziga xos va “hech kimga zarar keltirmaydigan” zararsiz nuqson-xarakterga ega: biri beso‘naqay va ovqatga o‘ch, biri kar-dovdir, biri tinmay gapiruvchi, boshqasi esa yengiltak. Komediya-dagi kulgi aynan mana shunday insoniy ojizliklar va nuqsonlar ustiga qurilgan.

O‘zbek folkloriga xos bo‘lgan Afandi latifalaridagi hozirjavoblik hamda o‘tkir satira klassik dramaturgiya-dagi “hech kimga ziyon yetkazmaydigan nuqson” tushunchasi bilan chambarchas tutashadi. Rejissyorlar bu ikki uslubiy yo‘nalishni quyidagicha uyg‘unlashtirganlar: Milliy teatr talqinida M.Azimov folklorik latifa kulgisini aktyorlarning samimiy psixologik ijrosi orqali namoyon etib, Aristotel ta’riflagan zararsiz insoniy nuqsonlarni badiiy-estetik darajaga ko‘targan. O‘zbek davlat drama teatrida rejissyor R.Tog‘ayqulov folklorik matnga modern va

feministik unsurlarni qo'shib, personajlar nuqsonini zamonaviy ijtimoiy parodiya va buffonada vositasida ochib berishga urinadi. Sirdaryo teatrida esa Q.Yaqubov folklorik kulgini xalq qo'shiqlari va musiqiy ariyalar (lapar va terma) spektakliga singdirish orqali Aristotel nazariyasiga mos yengil, musiqiy-komedik muhit yaratgan.

Milliy teatrdan sahnalashtirilgan talqin o'zining rejissura puxtaligi va aktyorlar ansamblining mukammalligi bilan ajralib turadi. Syujet Podshoning Afandiga uy sovg'a qilgani hamda 4ta kelinchak tayyorlab qo'yilganligi xabari bilan boshlanadi. G'aybullar Hojiyev Afandi obrazini shu qadar maromiga yetkazib ijro etganki, uning yuzidagi samimiy tabassum va soddalik tomoshabin ko'z o'ngida chinakam Afandi qiyofasini gavdalandiradi. Tamanno (S.Yunusova) ijrosida noziklik va nazokat yetakchilik qilsa, Fotimabonu obrazi M.Ibrohimova talqinida ichki kechinmalar bilan ochib berilgan. To'tixon (M.Muxtorova) xarakter va nutqiy estetika jihatidan tomoshabin yodida muhrlanib qolgan.

2020-yilda Drama teatri jamoasi ushbu pyesaga qayta murojaat qilib, uni "Ojiza demang bizni" nomi ostida sahnaga olib chiqdi. Rollarni Sh.So'fiyev (Afandi), M.Xurramova (Fotima), T.Mirmaqsudova (Jannatoy), D.Toshmatova (Tamanno), T.Suropova (Zubayda), R.Egamberdiyeva (To'tixon) kabilar ijro etganlar. Rejissyor pyesa matnini zamonaviy tomoshabin talabiga moslab qisqartirgan bo'lsa-da, bu holat mantiqiy yaxlitlikka putur yetkazgan. Masalan, Fotima obrazining sahnaga kirib kelib hovlili bo'lganidan xursand bo'lish so'zlari olib tashlangani sababli uning xarakteri yetarlicha ochilmay qolgan.

Pyesaning original matnida To'tixon va Afandining muloqoti quyidagicha aks etgan:

To'tixon: Jin-ajinalar bor ekan bu uyda, uxlab yotgan edim, kimdir chaqirganday bo'ldi, ko'zimni ochsam, taqsimimga o'xshagan bir balo ko'zini paxtasini chiqarib menga qarab baqrayib turibdi.

Fotima: Tovba! Taqsimim o'zidan bo'lak boshqa narsaga o'xshamaydi.

To'tixon: Avvaliga men ham shunday o'ylagan edim, men ham mundoq tikilib bir qichqirgan edim. Yo'q bo'lib qoldi, endi ko'zimni yumib bir ochsam, o'sha pes yana ustimda ko'zini paxtasini chiqarib turibdi [5, 31-b].

Spektaklda aktrisa asar matnidagi "jin-ajina" so'zi o'rniga "ajnabiy" so'zini qo'llagan, bu esa sahnada nutqiy hamda mazmuniy buzilishga olib kelgan. Boshqa tomondan, xalq ashulalari ("Gul tagidan gul chiqadi", "Chipra dalli", "Olmacha anoringga balli", "Ha yor-yor yoringman") lapar va terma shaklida o'rinli qo'llanilgan. Sirdaryo teatrida Qutlimurod Yaqubov sahnalashtirgan spektakl musiqiy-folklorik yechimi bilan ajralib turadi. Unda "Tom boshida tog'ora" kabi xalq qo'shiqlari ariyaga transformatsiya qilingan ("Erta bilan turaman nahori nashtayo...", "Paqa-paq"). Biroq sahnalashtiruvchi rassomning dekorativ yechimida hujralar o'rniga ishlatilgan bitta katta parda o'ta jo'n chiqib, visual jozibadorlikni pasaytirgan.

Ibrohim Sodiqovning "Afandining besh xotini" pyesasi va undagi Nasriddin Afandi tipaji faqatgina o'tmish teatr tarixi hodisasi bo'lib qolmay, bugungi kunda ham o'zining badiiy, ijtimoiy hamda ma'naviy-tarbiyaviy aktualligini saqlab kelmoqda. Buni asarning zamonaviy professional teatrlar repertuaridagi o'zni hamda oliy ta'lim muassasalaridagi sahnaviy talqinlari tasdiqlaydi.

Xususan, professional teatrlarning gastrol faoliyatida va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ushbu asar alohida estetik funksiyani bajaradi. O'zbekiston davlat drama teatri jamoasi tomonidan R.Tog'ayqulov rejissyorligida sahnalashtirilgan "Ojiza demang bizni" spektaklining Termiz davlat universitetida namoyish etilishi buning amaliy isbotidir. "Teatr haftaligi" doirasida taqdim etilgan ushbu komediyada ayollarning jamiyatdagi o'zni va faolligi g'oyasi satira hamda musiqiy-plastik yechimlar orqali gavdalantirilib, talabalar auditoriyasining ma'naviy-estetik ehtiyojlariga mos tushdi.

Asarning hayotiyliigi va moslashuvchanligi, shuningdek, talabalar teatr-studiyalarining ijodiy izlanishlarida ham namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida "San'at jurnalistikasi"

yo'nalishi talabalaridan tashkil topgan "Art Vision" teatr-studiyasi (badiiy rahbar M.Axmetjanova) tomonidan pyesa asosida "Afandining hangomalari" spektaklining sahnalashtirilishi e'tiborga loyiqdir. Bo'lajak san'atshunos va jurnalistlarning dramatik asar matni bilan amaliy ishlashi, obraz yaratish hamda sahna madaniyatini egallashi I.Sodiqov dramaturgiyasi bugungi yosh avlodni ham estetik, ham kasbiy jihatdan tarbiyalashda muhim badiiy vosita ekanini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan teatr talqinlarida I.Sodiqov pyesasining mantiqiy yaxlitligi saqlangan holda, har bir jamoa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib rejissyorlik yechimlarini taklif etgan. Milliy teatr talqini aktyorlik ansambli va xarakterlar aniqligi bo'yicha etalon bo'lib qolayotgan bo'lsa, Drama teatri hamda Sirdaryo teatri spektakllarida musiqa va matn ustida qiziqarli tajribalar bilan birga sahnaviy bezak, aktyorlik tanlovi hamda nutq madaniyatida bartaraf etilishi lozim bo'lgan kamchiliklar mavjud. Kelgusida ushbu asar va umuman folklorik dramalarni sahnalashtirishda rejissyorlar matn qisqartmalariga ehtiyotkorona yondashishlari, aktyorlar esa sahna nutqi hamda personaj tipajiga moslik masalasiga alohida e'tibor qaratishlari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov K. *Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o'zbek teatrining o'rni (1991–2023-yy.): San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref.* – Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, 2025. – B. 12.
2. Abdumuxtorova N. *Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri repertuarida komediya janrining o'rni ("Afandining besh xotini" spektakli misolida) // Kórkem óner hám mádeniyat Xabarshısı.* – 2025. – №4. – B. 12–18.
3. Aristotel. *Poetika. Tarjimon: U.To'ychiyev.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 150 b.
4. Sodiqov I. *Afandining besh xotini (komediya-hazil, qayta ishlangan varianti).* – 45 b.